

**TAQLID SO'ZLARNING MA'NO XUSUSIYATLARINI O'RGANISH**  
**( 7-SINF ONA TILI DARSЛИGI MISOLIDA)**

Abduvaitov Eldorbek Farxod o'g'li  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada taqlid so'zlarning qanday sintaktik vazifalar bajarishi xususida fikr yuritiladi. Sintaktik xususiyatlari misollar orqali yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** sintaktik vazifa, alohida olingan so'zlar, taqlid so'zlarning otlashuvi, uslubiyat, grammatik ma'no, sintaktik tahlil.

### KIRISH

Taqlid so'zlar mustaqil so'z turkumlariga ham, yordamchi so'z turkumlariga ham kirmaganligi (lekin har ikkisiga xos belgini o'zida ma'lum darajada aka ettiradi) uchun alohida olingan so'zlar turkumiga kiritilgan. Alohida olingan so'zlar turkumiga kiritilgan undov so'zlar: his-hayajon, buyruq-xitobni; modal so'zlar: fikrga so'zlovchining munosabati (ishonch, gumon, quvonch, afsuslanish)ni; taqlid so'zlar o'z-o'zidan tovush yoki holatga taqlidni bildiradi. Har bir alohida olingan so'zlarning o'ziga xos uslubiyati, grammatikasi, sintaktik xususiyatlari mavjud.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Taqlid so'zlarning sintaktik vazifa xususiyatlari haqida so'z ketganda, avvalo, ularning ega (otlashganda), kesim, aniqlovchi (sifatlovchi aniqlovchi), hol (ravish holi) vazifalarda kelishi nazarda tutiladi.

I. Taqlid so'zlar ham otlashishi mumkin (bunda taqlid so'z bog'langan ot tushib qoladi va sintaktik vazifasini o'ziga oladi).

Uskunalarning taraq-turuqi Azimjonga sira yoqmasdi (Uskunalarning taraq-turuq ovozi Azimjonga sira yoqmasdi shaklida bo'lishi kerak edi).

Men-ku ishonaman, sahrolar gullab,

Sizning qiy-chuv bilan to'lgay dalalar. (A.Oripov)

(Sizning qiy-chuv ovozingiz bilan to'lgay dalalar shaklida bo'lishi kerak edi).

Taqlid so'zlar otlashganda:

- Egalik, kelishik qo'shimchalarini oladi;
- Turlanadi (shov-shuvi, shipir-shipiring, gurs-gursim);
- Gapda ot bajargan vazifalarda keladi (Tun sukutini ot tuyoqlarining dupuri buzdi. (O.Yoqubov).

II. Otga bog'lansa, sifatlovchi aniqlovchi [taqlid so'z + ot]:

Chars-churs ovozlarni eshitsa ham quloqlarini berkitmadni, ko'zlariga allanechuk yosh keldi.

Vujudini qurshagan qalt-qalt titroqni yengolmay yotardi.

III. Fe'lga bog'lanib kelsa, ravish holi vazifasini bajaradi (vazifa shakllari ham bo'lishi mumkin). [taqlid so'z + fe'l]

Bobomning aytishi bo'yicha o'sha paytdagi yulduzlar yalt-yalt yonarmish.

Jamshidning holini tushunmay g'o'ng'ir-g'o'ng'ir gaplashishdi.

Diyorbek akasining yelkasiga boshini qo'yib piq-piq yig'labdi.

Xursandchiligidan ko'zları pir-pir uchdi.

IV. Gapning oxirida kelsa, kesim (ot kesim) vazifasini bajaradi.

Osmonda yulduzlar to'p-to'p.

Bog'da gullar g'uj-g'uj.

### MUHOKAMA

Ba'zi bir hollarda so'z tarkibi o'zgargan bo'lishi ham mumkin. Taqlid so'zlarni sintaktik tahlil qilayotganimizda ularning joylashgan o'rniga qarab emas, leksik va grammatik ma'nolariga, qaysi so'zga bog'lanib (hokim va tobe munosabati) kelishiga e'tibor berish lozim:

Tongda ari gulga so'zlar g'uv-g'uv,

Guljonim, asaling ber, sog'indim-ku. (Q.Muhammadiy)

Tongda ari gulga g'uv-g'uv so'zlar

Taqlid so'zlarning inversiya hodisasiga uchrashi ham ma'lum ma'nolarni keltirib chiqarishi bilan birga, asosan, jozibadorlik, badiiy ta'sirchanlik, ifodaviylik xususiyatlarini namoyon bo'lishi uchun qo'llanadi.

### XULOSA

Taqlid so'zlarning miqdori, yasalishi (morfemikasi), leksik va grammatik ma'nolarini tushunmay turib, uning sintaktik xususiyatlarini anglash mumkin emas. Tilshunoslik yo'naliishlari bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Birini ikkinchisidan, ikkinchisini uchinchisidan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi.

Xuddi shunday taqlid so'zlar ham tilshunoslik fanida kattagina guruhnini tashkil etadi, kattagina vazifani bajaradi. Sintaktik xususiyat - keng qamrovli tushuncha. Tahlilida har bir affiksga, gapning mazmuniga, ularning tuzilishi va boshqa bir nechta xususiyatlarga e'tibor berish lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Erkaboyeva, N. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. "Yosh kuch" - Toshkent, 2021.
2. Ona tili. Umumiyo'rtta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. "Ma'naviyat", 2017.